



EPIDEYTIK NUTQIY JANRLAR O'RGANILISHINING RITORIK VA LINGVISTIK MASALALARI.

Xodjayeva Dilnoza Shavkatovna
f.f.n. dotsent Qo'qon DPI rektori

Annotatsiya. Mazkur maqolada epideyktik nutqiy janrning turlari, ularning ritorik lingvistik xususiyatlari hamda tasnifi hususida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada o'zbek tilshunosligida epideyktik nutqiy janr turlari va turkum xususiyatlari, ularning matniy kompozitsion qurilishi, uslubiy xoslanishi kabi masalalar ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Epideyktik nutqiy janr, ritorik lingvistik xususiyatlar, uslubiy xoslanish, kompozitsion qurilish, epideyktik nutqqa xos jamoaviylik va tantanavorlilik, tilshunoslik.

ИССЛЕДОВАНИЕ ЭПИДЕЙКТИЧЕСКИХ РЕЧЕВЫХ ЖАНРОВ РИТОРИЧЕСКИЕ И ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ.

Абстрактный. В данной статье рассматриваются виды эпидейктического речевого жанра, их языковые особенности и классификация. Также в статье описаны типы и категории эпидейктических речевых жанров в узбекском языкознании, их текстологическое композиционное построение и стилистические особенности.

Ключевые слова. Жанр эпидейктической речи, стилистические особенности, композиционное построение, собирательность и торжественность, свойственные эпидейктической речи, лингвистика.

RHETORICAL AND LINGUISTIC ISSUES IN THE STUDY OF EPIDEICTIC SPEECH GENRES.

Abstract. This article discusses the types of epideictic speech genre, their linguistic features and classification. Also, the article describes the types and categories of epideictic speech genres in Uzbek linguistics, their textual compositional construction, and stylistic features.

Keywords. Epideictic speech genre, stylistic features, compositional construction, collectivity and solemnity characteristic of epideictic speech, linguistics.

KIRISH.

Ilmiy adabiyotlarda epideyktik nutqiy janrlar tadqiqining boshlang'ich davri tarixan Aristotel zamonasiidagi notqlik san'atining rivojlanishi bilan izohlansa-da, uning lingvistik

xususiyatlarini o‘rganish rus tilshunosligi tadqiqotlari bilan bog‘lanadi. Xususan, S.V.Menshenina epideytik nutqiy janrlarning funksional mazmuniy jihatdan farqlanishini o‘rganar ekan, tabrik nutqiy janrida adresatni maqtash, xayrlashuv mazmunidagi epideytik nutqiy janrlarda adresatni qo‘llab quvvatlash, motivatsiya berish (armiyaga kuzatuv kabi), o‘ziga bo‘lgan ishonchni yuksaltirish, dafn epideytik nutqlarida esa adresatni ko‘nglini ko‘tarish, hamdard bo‘lish kabilar yetakchilik qilishini alohida ta’kidlaydi²¹⁵. S. V. Shatalova esa o‘zining nutqning epideytik janrlari deb nomlangan tadqiqot ishida epideytik nutqiy janrlarning hamon til tizimida mavjudligini jamiyatning publik chiqishlarga moyilligi va ijtimoiy maishiy hayotida faol qo‘llanilayotganligi bilan bog‘laydi²¹⁶.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Shu kunga qadar epideytik nutqiy janrlar yuzasidan olib borilgan ritorik tadqiqotlarda asosiy e’tibor auditoriya yoki adresatning birlamchi hisoblanganligi bilan harakterlanadi. Ritorik tadqiqotlarda adresantning asosiy maqsadi sifatida auditoriya yoki adresat ruhiyatiga so‘zlar orqali to‘g‘ri va aniq ta’sir qilish, to‘lqinlantirish, ta’sirlantirish, adresat ruhiyatini o‘zgartirish kabilar belgilanadi. Shu bilan birga, auditoriya yoki adresatni jonlantirish va birlashtirish ham asosiy maqsad sifatida ko‘rsatilishi mumkin. Adresantning ritorik maqsadiga erishishda ritorik strategiyalar va ushbu strategiyalarni amalga oshirishda esa ritorik nutqiy janrlar, jumladan, epideytik nutqiy janrlarning ham o‘rni beqiyos.

TAHLIL VA NATIJALAR. Epideytik nutqiy janrlar sifatida rasmiy va maishiy epideytik nutqiy janrlar, tantanali epideytik nutqiy janrlar, dafnga oid epideytik nutqiy janrlar turkumlari va ular tarkibidagi katta va kichik epideytik nutqiy janrlarni misol keltirish mumkin. Shuni aytish kerakki, hozirgi kunda rus tilshunosligida epideytik nutqiy janrlarning publik chiqishlarga oid, tantanali va ijtimoiy maishiy turlari keng o‘rganilmoqda²¹⁷. Ayniqsa, turli publik chiqishlar, tantanali bayram, yubiley, tadbirlardagi nutqlar, rasmiy mehmonlarga mo‘ljallangan nutqlar, tabrik, qadah so‘zi, minnatdorchilik bildirish, shu bilan birga, xayrlashuv mazmunidagi turli epideytik nutqiy janrlar: armiyaga kuzatuv, sport musobaqalariga kuzatuv, va’dali xayrlashuv, dafnga oid nutq: xotiralash nutqi, o‘qituvchi nutqidagi salomlashuv nutqi va chaqiruv, o‘qituvchilarning ayblovi, tahdidlari, maqto‘v asosida murojaat, salomlashuv, xayrlashuv, maslahat, maqto‘v, davlat tashriflari, rasmiy tadbirlar, g‘alaba, tug‘ilish, o‘lim, to‘y kabilardagi adresat kayfiyatini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan epideytik nutqiy janrlar maxsus tadqiqot ob’yekti sifatida tanlanmoqda. Epideytik nutqiy janrlarning ayrim turlari haqida gap borganda shuni aytish kerakki, epideytik nutqiy janrlar ijtimoiy lingvistik hodisa sifatida bir millatga xoslanishi ham mumkin. Masalan, xristian diniga e’tiqod qiluvchi halqlarda muqaddas avliyolar kuni, cho‘qintirish kuni, pasxa kuni, muqaddas uchlik kuni, unashtirish marosimi kabilardagi maxsus nutqlar vaqtida o‘ziga xos diniy xarakterdagi epideytik nutqiy janrlar

²¹⁵ С.В.Меньшенина. Вестник ЮУрГУ, № 7 (47), Серия “Социально-гуманитарные науки”, выпуск 4, Филология, 2005, с. 181-185

²¹⁶ С.В. Шаталова. Эпидейтические жанры речи. Диссертация ... кандидата филологических наук, Ярославль, 2009, с 379

²¹⁷ С.В. Шаталова. Эпидейтические жанры речи. Диссертация ... кандидата филологических наук, Ярославль, 2009, с 379

yuzaga keladi. Epideytik nutqiy janrlarning ritorik tadqiqida asosiy e’tibor ushbu nutqiy janrlar orqali fikrni aniq va qisqa ifodalash, bunda ideal sanalgan shaxslarni misol keltirish orqali qiyoslash, aniq raqamlardan foydalanish, adresantning o‘z nuqtai nazarini keltirish, yumordan foydalanish, mavzuni jamiyat uchun turli nuqtai nazarlarga ega muammoli masalaga aylantirish, emosiyasini maqsadli ishlatish, ezgu tuyg‘ularni (rashk, kuyikish, yomon ko‘rish, adolat, adolatsizlik kabi) uyg‘onishiga so‘zlar orqali ta’sir qilish, raddiyaga sababchi bo‘luvchi bahstalar masalani ko‘tarmaslik kabilarga ham qaratiladi.

XULOSA. Xullas, epideytik nutqiy janrlar ritorik tadqiqi negizida tinglovchini emosional hissiyotlariga murojaat qilish va ta’sir qilish, emosional hissiyotlarini uyg‘otish, inson qalbiga ta’sir qilish yotadi. Bunda jasorat, ehtiyotkorlik, adolat, mulohazakorlik, donolik, olijanoblik, fidoyilik, saxiylik, muloyimlik kabi fazilatlar adresant xulqi va nutqida o‘z ifodasini topadi. Shu sababli ham epideytik nutqiy janrlar orqali adresantning to‘g‘ri va haqiqiy emosional munosabatini ko‘rsata olishi, bunda adresant o‘zining emosional munosabatida ochiqlik, mulohazalilik, samimiylilik, e’tiborlilikni to‘g‘ri ko‘rsata olishi ritorik talabdir. Bu esa nutqning ta’sirchanligini oshiruvchi adresantga oid ekstralingvistik omillar sanaladi. Agar nutq ritorik qoidalar asosida tuzilib, to‘g‘ri tanlansa, nafaqat adresatni, balki butun kollektivni o‘z ta’siriga tushira oladi, auditoriya olqishlab, guldurosalar bilan qarshi oladi²¹⁸.

Epideytik nutqiy janrlarning eng xarakterli ritorik xususiyati shundaki, har qanday nutqiy vaziyatlarda epideytik nutqiy janrlar jamoaviylik, birdamlik, yakdillik, hamfikrlilik, ijobiy qo‘llab quvvatlash, shu bilan birga, jo‘shqin va sokin tantanavorlilik kabi bir qator ijtimoiy jamlanishga yo‘naltirilgan jamoaviylik xususiyatlarga ega bo‘ladi. Shu sababli ham til tizimida har qanday katta va kichik tadbirlarda yuzaga keluvchi rasmiy, norasmiy, ijtimoiy maishiy xarakterdagi nutqiy janrlarni epideytik nutqiy janrlar sifatida tadqiq qilinishi mumkin.

Epideytik nutqiy janrlarning yana bir o‘ziga xosligi sifatida shuni aytish mumkinki, epideytik xarakterdagi nutqda yo‘naltirilganlik mavjud bo‘lib, adresatni aniq ko‘rsatilishi qat’iy talabdir. Ayniqsa, adresat shaxsiga muayyan baho berilib, uning individual xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Demak, til tizimidagi epideytik nutqiy janrlar tizimi ritorik nuqtai nazardan tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilganda, adresatga ta’sir qilish vositalari, nutqning adresatga yo‘naltirilganligi hamda adresatning jamoaga tegishlilikini isbotlovchi ritorik vositalar tadqiqot ob’ektiga aylanadi.

Epideytik nutqiy janrlar yuzasidan to‘plab o‘rganilgan ilmiy materiallar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunga qadar o‘zbek tilidagi epideytik nutqiy janrlarning ritorik va lingvistik xususiyatlari alohida lingvistik masala sifatida maxsus tadqiqot ob’ekti bo‘lgan emas. Shu sababli ham o‘zbek tilshunosligida epideytik nutqiy janrlar va ularning tasnifi masalasi yangi lingvistik tadqiqot ob’ekti sanaladi. O‘zbek tilidagi epideytik nutqiy janrlarning siyosiy, yuridik, publisistik, maishiy diskursga oid turlarini keng tadqiq qilish o‘zbek tilshunosligi oldiga ulkan vazifalar qo‘yadi. Ayniqsa, ushbu turlarning lingvistik xususiyatlari,

²¹⁸ С.В. Шаталова. Эпидейтические жанры речи. Диссертация ... кандидата филологических наук, Ярославль, 2009, с 379

jumladan, matniy kompozision tuzilishi, leksik-semantik, grammatik xususiyatlari o‘ziga xosdir. Ushbu lingvistik xususiyatlarni o‘rganish epideytik nutqiy janrlarning ritorik tabiatini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шаталова С.В Эпидейктические жанры речи. диссер. филол. наук., М., 2009;
2. М. Анджу. Содержательно-композиционные и стилистические особенности русской политической торжественной речи: на материале выступлений президентов РФ в 2000-2010 гг., диссер. филол. наук., 2012, с 233;
3. Аннушкина 2. Т. В. Поздравительная речь в разных сферах общения: содержание - композиция – стиль. 2016, с 213;
4. Танзила Норбоева ҳам Россияга ҳамдардлик билдирди // Қалампир.уз
[хтtps://қалампир.уз/news/танзила-норбоева](https://qalampir.uz/news/tanzi-la-norb-oeva)